

## BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING TURLARI VA SHAKLLARINING AHAMIYATI

**Xaydarov Baxrom Xolmuradovich**

*O'zbekiston Milliy universiteti, Jizzax assistenti*

**Abdihomidov Zarif Sherzod o'g'li**

*O'zbekiston Milliy universitet, Jizzax filiali, talaba*

**Komiljonov Jamshidbek Rasulbek o'g'li**

*O'zbekiston Milliy universiteti, Jizzax filiali, talaba*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada biznes va tadbirkorlik tushunchasi, biznes va tadbirkorlik faoliyati, ularning turlari, shakllari haqida hamda biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning jamiyatdagi o'rnini va ahamiyati haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, tavakkalchilik, tijorat, ishlab chiqarish, konsalting tadbirkorligi, yakka yartibdagi tadbirkorlik, ishlab chiqarish tadbirkorligi, tovar birjalari.*

Bizga ma'lumki, biznes va tadbirkorlik har qanday davlat iqtisodiyotida asosiy rol o'ynaydi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jahon mamlakatlari tajribasida o'zining yuksak natija va muvaffaqiyatlari bilan mustahkam o'rin egallagan bo'lib, aksariyat xalqlarda uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 60-70 foizni tashkil etadi. Kichik biznesning rivojlanishi iqtisodiyotdagi jo'shqinlik va samarali raqobat muhiti uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, iste'mol sektorini kengaytirish orqali talabni rag'batlantirish, iste'mol bozorini tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, byudjet tushumlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shunga asosan, ko'plab rivojlangan davlatlar kichik biznes faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga intiladi.

Tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati, bu-biznesdir) — bu tavakkalchilik asosida amalga oshiriladigan, mulkka egalik qilish, tovarlarni sotish ishlarini bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishdan muntazam ravishda daromad olishga qaratilgan mustaqil faoliyat sanaladi.

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyatini maqsadi, turi va yo'nalishiga qarab ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va konsalting turlariga ajratish mumkin. Va bular ham o'z navbatida quyidagi turlarga bo'linib ketadi.



•Ishlab chiqarish: innovatsion, ilmiy-texnik, tovar ishlab chiqarish, xizmat ko`rsatish, iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish, iste'mol xizmatlari ko`rsatish, axborot;

•Tijorat: savdo, savdo-xarid, savdo-vositachilik, tovar birjalari;

•Moliyaviy: bank, sug`urta, auditorlik, lizingli, fond birjalari;

•Konsalting: umumiy bosharish, mamuriy boshqarish, moliyaviy boshqarish, xodimlarni boshqarish, marketing, ishlab chiqarishni boshqarish, axborot texnologiyasi.

Ishlab chiqarish tadbirkorlikni yetakchi turi deb atash mumkin. Bunda mahsulot, tovarlar ishlab chiqariladi. Biroq bozor iqtisodiyotiga o`tishda aynan shu faoliyat sohasi eng ko`p salbiy o`zgarishlarga duchor bo`ldi: xo`jalik aloqalari uzildi, moddiy-texnik ta`minot buzuldi, mahsulotni sotish keskin pasaydi, korxonalarining moliyaviy ahvoli yomonlashdi.

Shunga qaramay ishlab chiqarish tadbirkorligini tadbirkorlikning asosiy turi desak xato bo`lmaydi. Ze`ro, bunday tadbirkorlik faoliyatida mahsulot, tovarlar ishlab chiqariladi, xizmat ko`rsatiladi, ma`lum ma`naviy qadriyatlarlar yuzaga keladi.

Ishlab chiqarish tadbirkorligining innovatsion turida yangi g`oyalar, yangiliklar va innovatsiyalar amalga oshiriladi. Tovar ishlab chiqarish tadbirkorligi turida tovar ishlab chiqarish bilan bog`liq jarayon amalga oshiriladi. Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish tadbirkorligida aholi ehtiyojlarini qondirish uchun kerakli tovarlar ishlab chiqarish bo`yicha ishlar amalga oshiriladi.


Tijorat (arab. — savdo-sotiq) — savdo va savdo-vositachilik faoliyati, tovarlar va xizmatlarni sotishda ishtirok etish yoki sotishga ko`maklashish, kengroq ma`noda esa tadbirkorlik faoliyati. Foyda olishga qaratilgan har qanday xatti-harakat tijoriy faoliyat bo`ladi, chunki bu sohada qisqa vaqtda daromad olish mumkin. Agar ishlab chiqarish korxonalarining samaradorligining 10-12 %ini tashkil etsa, tijorat faoliyati esa bu ko`rsatkichni yana 20-30 %ga oshiradi.

Tijorat tadbirkorligi faoliyati tovar birjalari yoki savdo tashkilotlari bilan ham bevosita bog`liq.

Moliyaviy tadbirkorlik – pul va qimmatli qog`ozlar oldi-sotdisi bilan bog`liq tadbirkorlik faoliyati. Moliyaviy tadbirkorlikda qimmatli qog`ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqalar), valuta qimmatliklari va milliy pullar oldi-sotdi qilinishi uning o`ziga xos xususiyati hisoblanadi.

“Moliyaviy tadbirkorlik” tadbirkorlik sohasining alohida olingan turiga kiradi. Uning faoliyat sohasi qiymatlarning almashinishi va almashtirilishdan iborat. Moliyaviy faoliyat ishlab chiqarish, tijorat sohasini ham qamrab olishi mumkin.





Shuningdek, moliyaviy tadbirkorlik mustaqil bank va sug`urta muassasalari shaklida ham faoliyat yuritadi.

Moliyaviy tadbirkorlik faoliyati turlaridan bir bu auditorlikdir. Auditorlik faoliyati — auditorlik tashkilotlarining auditorlik xizmatlarini ko`rsatish bo`yicha tadbirkorlik faoliyati. Yana bir tadbirkorlik faoliyatlaridan biri lizing hisoblanadi. Lizing – bu uzoq muddatli ijara bo`lib, uning oxirida ijaraga olingan obyektни sotib olish imkonini beradi.

Moliyaviy bitim tadbirkorlik faoliyatining ilgarigi turlariga nisbatan kamroq samara beradi. Bu ko`rsatkich 5-10% ni tashkil etadi. Keyingi vaqtda O`zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining konsalting (maslahat) turi rivojlanmoqda. Bu tadbirkorlik turi ko`p yo`nalishlardan iborat bo`lib, kelajakda yaxshi rivojlanib ketishiga jahon iqtisodiyoti taraqqiyoti guvohlik beradi.

Konsalting (maslahat berish) - bu biznes-jarayonlarni optimallashtirish, faoliyatning asosiy ko`rsatkichlarini oshirish va takomillashtirish bo`yicha keng ko`lamli iqtisodiy, sanoat, tijorat va boshqa masalalar bo`yicha korxonalar rahbarlari va xususiy tadbirkorlarga pullik ekspert maslahatlarini berishdir. Konsaltingning maqsadi boshqaruv tizimining ( boshqaruv ) belgilangan maqsadlariga erishishida yordam berishdir.

Tadbirkorlik faoliyati turlari nisbatan mustaqil bo`lib, bir-birini to`ldirib keladi. Tadbirkorlik faoliyatining barcha turlarini belgilab beruvchi ishlab chiqarish tadbirkorligining ustuvorligini tan olish kerak.

O`zbekiston Respublikasida “Tadbirkorlik to`g`risida ”gi qonunning 5-moddasiga binoan tadbirkorlikning quyidagi shakllari mavjud:

- Yakka tartibdagi tadbirkorlik;
- Xususiy tadbirkorlik;
- Jamoa tadbirkorligi;
- Aralash tadbirkorlik.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning eng oddiy shakli bo`lib, uni tashkil qilish tartibi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 14-fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan «O`zbekiston Respublikasida xususiy tadbirkorlik to`g`risidagi Nizom» bilan belgilanadi. Ushbu nizomga muvofiq yakka tadbirkor o`z faoliyatini yuridik shaxs tashkil qilmay amalga oshirishi mumkin. Yakka tartibdagi tadbirkorlar odatda mayda ishlab chiqarish bilan shug`ullanadilar. Yakka tartibdagi tadbirkorlik o`z navbatida ikki turga bo`linadi: shaxsiy tadbirkorlik; birgalikdagi tadbirkorlik.



O'zbekiston Respublikasida «Xususiy tadbirkorlik to'g'risidagi Nizom»da korlikdan farqi xususiy tadbirkorlik faoliyatiga quyidagicha ta'rif berilgan:

Xususiy tadbirkorlik fuqarolar (alohida fuqaro) tomonidan o'z tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish faoliyatidir. Xususiy tadbirkorlikning yakka tartibda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlikdan farqi shundaki, bu yerda faoliyat yurituvchilar o'z faoliyatini yollanma ishchi kuchi yordamida olib boradilar. Ular yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'rsatadilar va o'z korxonalarini davlat ro'yxatidan o'tkazishga majburdirlar.

Tadbirkorlikning keyingi shakli jamoa tadbirkorligi bo'lib, bir guruh fuqarolarning o'zlariga ma'qul bo'lgan mulkchilik shakllarida jamoaga birlashib, jamoa korxonalarini tashkil etishlari va shu asosda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishlaridir. Jamoa tadbirkorligi faoliyati firmalar faoliyatida o'z ifodasini topadi. Firma muayyan turdagi mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan, bozordagi talab va taklifga qarab ish tutadigan, iqtisodiy jihatdan erkin va mustaqil korxonadir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati ma'no jihatidan keng ma'noli tushuncha. Biznes va tadbirkorlik faoliyati o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, bunda tadbirkorlik shakllariga qarab xar xil turdagi imtiyozlar ega va jamiyat ayni shu tadbirkorlik, biznes, tijorat va boshqa tarmoqlar orqali o'zi uchun o'z kelajagini barpo qila oladi desak, yashash uchun zamin yarata oladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**


1. Xaydarov B., Saitov S. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 634-635.
2. Xaydarov B. X., Saitov S. A. RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI AMALIY AHAMIYATI VA HORIJIIY TAJRIBA //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 5. – C. 151-156.
3. Хайдаров Б. ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КАМБАФАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ //Экономика и образование. – 2021. – №. 4. – С. 288-292.
4. Бахром Х. Х. БИЗНЕСНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ТАРТИБЛАРИ //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 12. – №. 2. – С. 139-142.





5. Xaydarov B. IMPACT OF INTELLECTUAL PROPERTY PROTECTION ON THE DIGITAL ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 163-174.
6. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich, Xudayarov Rashid Tuychiyevich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOT BIZNESNI REJALASHTIRISH. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 110–113. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/130>
7. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich, & Saitov Sirojiddin Abduvalievich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNESNING O'RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 113–116. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/131>
8. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA BUXGALTERIYA VA AUDITNI O'RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 128–131.
9. Tuychieva Nodira, Baxrom Xaydarov, & Quziboyev Zafar. (2022). THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF COMPETITION AND MONOPOLY IN THE ECONOMY. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 1(11), 241–245.
10. Baxrom Xaydarov. (2022). IMPACT OF INTELLECTUAL PROPERTY PROTECTION ON THE DIGITAL ECONOMY. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 1(11), 163–174. Retrieved from <http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/317>.
11. Saitov Sirojiddin, Tuychieva Nodira, & Saydullayeva Dinora. (2022). CHARACTERISTICS OF PRICE AND FORMATION. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 1(11), 265–270.
12. Saitov Sirojiddin, & Achilov Azizbek. (2022). TRANSITION TO THE MARKET ECONOMY AND ITS CHARACTERISTICS IN UZBEKISTAN. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 1(11), 255–258.
13. Saitov Sirojiddin, Tuychieva Nodira, & Saydullayeva Dinora. (2022). CHARACTERISTICS OF PRICE AND FORMATION. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 1(11), 265–270. Retrieved from <http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/329>
14. Мухтаров Б. А., Ортиков Ё. Ю. Культурное и экономическое развитие туризма в Узбекистане //Молодой ученый. – 2016. – №. 14. – С. 375-378.





15. Nodira T. INNOVATIVE MANAGEMENT IN THE DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 346-351.

16. Ali o'g'li A. O. STATISTICAL STUDY OF DIRECT MAINTENANCE OF SMALL BUSINESS ACTIVITIES IN THE REGIONS //EPRA International Journal of Economic and Business Review (JEER). – 2022. – Т. 10. – №. 6. – С. 30-33.

17. Норбеков, Х., & Туйчиева, Н. (2022). Формирование конкурентных преимуществ компании . Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 589–592.

